

Obuna indeksi - 904

ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

PUBLIC EDUCATION

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

3
2024
(May-Iyun)

3/2024

XALQ TA'LIMI

www.pubedu.uz



<https://t.me/xalqtalimijn>



ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

3/1-son

(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqsa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI	
S.B. Karimov	97 O'quvchilarning kuylash qobiliyatlarini rivojlantirishga qo'yilgan zamonaviy talablar
MAKATBGACHA TA'LIM	
G.Tilanova	101 Maktabgacha ta'lism tashkilotlarda bolalar nutqini o'stirish orqali fikrlash qobiliyatini shakllantirish
QIYOSIY PEDAGOGIKA	
Sh. Abdujalilova	105 Inklyuziv ta'limning o'zbekiston tajribasi
KORREKSION PEDAGOGIKA	
Z.X. Xusnuddinova	108 Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda nutq kamchiliklarini bartaraf etish texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati
M. Dehqanova	112 Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ishlarni samarali tashkil etishda daktelemali metodikalardan foydalanish
N. Egamberdiyeva	117 Autizm sindromli bolalarning diagnostika jarayonini tashkil etish
D.Pulatova, Z. Komilova	121 Autizm sindromli bolalar uchun sifatli inklyuziv ta'limg muhitining zarurati
	ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
P. Джураев	125 Развитие инновационных технологий в образовании и дальнейшее расширение партнёрства
A. Шин	134 Использование цифровых технологий в дошкольном образовании как основной фактор современной социализации детей
ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ	
M. Rahimova	140 Важность развития экологического образования и мышления в сознании молодого поколения

Muborakxon DEHQANOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Maxsus pedagogika" kafedrasи o'qituvchisi

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA DAKTILEMALI METODIKALARDAN FOYDALANISH

Annotation

Maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish uchun samarali yo'llarni va metodikalarini tushuntirish bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilar uchun sifatli ta'lim berish bo'yicha amaliy ishlar haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar. Daktilema, surdopedagog, surdotarjimon, chaynvord so'zlashuv nutqi, talafuz mashqlari.

В статье представлена информация, объясняющая эффективные способы и методики обучения детей с нарушениями слуха. Также будет рассмотрена практическая работа по обеспечению качественного образования учащихся, нуждающихся в социальной защите.

Ключевые слова. Дактилема, сурдопедагог, сурдопереводчик, чейнворт разговорная речь, упражнения на произношение .

The article provides information on explaining effective pathways and methodologies for educating children with hearing impairments. There is also a reflection on practical work to provide quality education for students in need of social protection.

Key words. Dactylem, surdopedagog, surdotarjimon, chainvord colloquial speech, pronunciation exercises.

Mamlakatimizda alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ta'lim tarbiyasiga juda ko'p e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabr-dagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2022 yil 20 oktabrda 407 sonli "O'zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"1 eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning huquqlarini har tomonlama himoyalash va ularning bilimini rivojlantiruvchi asosiy omil hisoblanadigan ta'lim olish huquqini sifatli ta'minlash eng muhim majburiyatga aylanishi belgilab berilgan. Shu borada ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilar uchun sifatli ta'lim berish bo'yicha amaliy ishlar tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan.

Hozirda Chirchiq davlat pedagogika universitetida Prezident qarorini amaliy ta'minlash maqsadida surdotarjimonlik faoliyatini yo'lga qo'yish va uni kengashtirish uchun keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya jarayoni sog'lom bolalarnikidan tubdan farq qilib, ularda avvalo daktil nutq asosiy nutq shakliga aylanadi.

Daktileziya (qadimgi yunoncha: δάκτυλος [daktilo] — barmoq va qadimgi yunoncha: λόγος [logiya]) — nutq shakli; o'ziga xos tarzda qo'l barmoqlari yordamida gaplas-

hish hisoblanib, muayyan alifbodagi har bir harfni ifodalash uchun barmoqlarga turilcha shakl beriladi. Daktiologiyada bir yoki ikkala qo'l barmoqlaridan foydalanish mumkin (asosan o'ng qo'l barmoqlaridan foydalilanadi). Daktiologiya kar, kar-soqovlarning oson va tez so'zlashuviga imkon beradi. Kar va zaif eshituvchilar daktiologiya belgilari ko'zi bilan qabul qiladi. Kar bolalar uchun bog'cha va matabning boshlang'ich sinflarida daktiologiyadan asosiy o'qitish vositasi sifatida, shu matabning yuqori sinflarida esa undan yordamchi o'qitish vositasi sifatida foydalilanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lrim berishda daktiologiya birdan-bir muomala vositasidir.

Daktiologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o'ziga xos shaklidir. U so'zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma xarakatga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi.² Daktiil nutqi so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko'ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin.

Bog'cha davrda kar bola daktiologiyaga savod o'rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko'rsatishicha, daktiologiya eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

 A	 B	 D	 E	 F	 G
 H	 I	 J	 K	 L	 M
 N	 O	 P	 Q	 R	 S
 T	 U	 V	 X	 Y	 Z
 O'	 G'	 SH	 CH	 NG	

Oliy ta'limda bo'lajak surdotarjimon, surdopedagoglarni tayyorlashda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'jallangan metodikalar tanlab olinadi. Bugungi kunda 1 kurs bo'lgan surdotarjimonlarga amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilinganda avvalo ularning o'ziga daktelema o'rnatiladi. Bunda birinchi har bir daktiil harf tushuntiriladi. Ushbu

² F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA, M.G'.DEHQANOVA, SH.N.IBADULLAYEVA "Surdopsixologiya" O'quv qo'llanma, 2023 yil, 124-126 bet



metodikani o'rgatishda eng samarali usul bu 1+4+5 strategiyasi³ hisoblandi. Bu strategiyaning mohiyati 1 ta so'z – tushunchaning 4 xil shakli o'quvchining xotirasida saqlanishiga erishishdi va 5 xil variantda xotirada mustahkamlashga alohida urg'u berilgan.

So'z	So'zni ifodalash	So'z birikmasi
So'z	- daktillash:	- so'z birikmasi
	- talaffuz qilish:	- sodda gap:
	- imo - ishora belgisi:	- savol tuzish va berish:
	- yozish.	- faol lug'atga kiritish: - yodda saqlash.

Mashg'ulotda qo'llanuvchi ish turlarini tanlashda talabalarning og'zaki va yozma muloqotini rivojlantirish ustuvorlik qiladi. Berilayotgan topshiriqlar talabalarni grammatik jihatdan to'gri qurilmalarda so'zlashishga tayyorlaydi. Buning uchun pedagog tomonidan har bir dars uchun nutq materiallari aks etgan kartochkalar, plakatlar va turli didaktik vositalarni tayyorlashi va dars jarayonida ulardan samarali foydalanishi alohida talab etiladi. Ma'lumki, kar va zaif eshituvchi bolalar muloqotda og'zaki, yozma, daktil va imo - ishorali nutq vositalaridan foydalanadilar. Ushbu korreksion mashg'ulot orqali kar va zaif eshituvchi bolalar o'z fikrini og'zaki ravishda tushuntira olmagan vaziyatlar da mustaqil yozma nutq orqali murojaat qilishga o'rganadilar. Nutqi yozma muloqot darsida bolalar labdan o'qishga o'rganadilar. Tovushlar qo'yilib, eshitish ustida ishlar tizimli olib borilgandan so'ng nutqning turli shakllaridan foydalanish bo'yicha topshiriqlar kiritiladi. Mazkur mashg'ulotni o'tkazishdan maqsad o'quvchini nafaqat chiroyli yozishga, balki o'z fikrini qisqa va lo'nda atrofdagilarga tushunarli tarzda bayon etishga o'rgatadi. Dastlab talabalar savol – javob, nutqi topshiriqlarni bajaradilar, so'ngra shu nutqiy materialni mustaqil ravishda yozish ustida mashqlar bajaradilar.


E	L	A	K	X	Q	X
B	V	V	L	S	Q	O'
A	A	A	O	O	O	R

³ F.U.Qodirova "Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari" p.f.d. (DSc) dissertatsiyasi 2020, Toshkent 190 bet.

Daktilemani va uni ifodalashni o'rgatgandan so'ng daktilema qatnashgan turli metodikalar o'rgatiladi.

Hozirda daktilemani o'qish tezligini oshirish uchun biz ta'limda chaynvordlardan foydalanish mumkin. Ushbu chaynvorddagi yashiringan so'zlarni topish uchun tezlik asosiy o'rinni egalaydi.



Sabzavotlar

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ta'lim tamoyilidan biri bo'lgan "soddadan murrakkabga" tamoyili orqali ulardagi bilimlarni sekin asta mustahkamlab boramiz. Dastlabki bosqichda yuqoridaagi metodikalardan foydalansak, keyingi bosqichda imo-ishorani o'rgatishda ushbu qilgan metodikamiz tezkorlikni oshirish uchun xizmat qiladi. Shuni unutmasligimiz lozimki, o'quv o'rgatish jarayonining dastlabki bosqichidayoq yaxshi bilim olib mustahkamsa kelajakda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun to'g'ri ta'lim muhitini yaratib beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirova F.U. "Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari" p.f.d. (DSc) dissertatsiyasi 2020, Toshkent 190 b.
2. Qodirova F.U. Pulatova D.A. Dehqonova M.G'. Ibadullayeva Sh.N. "Surdopsixologiya" O'quv qo'llanma, 2023 yil, 124-126 b.
3. Qodirova F.U. Fayziyeva U.Y. Umaraliyeva M. Kobilova Sh.X. Ishmatova O.S. "Surdopedagogika" darslik, 2023 yil, Chirchiq 200 b.
4. Qodirova F.U. va boshqalar "Maxsus pedagogika asoslari" o'quv qo'llanma, chirchiq 2023 yil, 79 b.
5. "O'zbekiston karlarining imo-ishora nutqi", 2011 yil
6. R.Fradkina, "Gapiruvchi qo'llar" Moskva 2001
7. Avvalboyeva D, Imo-ishora tili, Toshkent 2021